

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.A.Abduvaliyev</b> Farg'ona vodiysi hududida uy parrandalari gelmintlarining o'rganilishi bilan bog'liq ma'lumotlar .....	648
<b>M.R.Xolikulov, S.B.Xatamova</b> Farg'ona shahar tabiiy yer osti buloq suvlarining gidroekologik holati.....	652
<b>M.X.Akbarova, M.A.Davidov, Z.N.Jo'rayev</b> Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining hayotiy shakllari tahlili .....	657
<b>T.Rahimova, M.X.Akbarova, S.Usmonov, O.A.Turdiboyev</b> Pyatayeva Anna Danilovna (1906 – 1981) .....	662
<b>M.X.Akbarova, O.Turdiboyev</b> <i>Scutellaria glabrata</i> (Lamiaceae) lektotipifikatsiyasi .....	667
<b>M.X.Akbarova, Turdiboyev, R.Y.Ruzimatov, M.R.Xolikulov</b> Xamidov G'ulom Xamidovich (1936–2024) .....	670
<b>M.A.Davidov, R.E.Soibnazarov</b> Bo'yoqbop drok-( <i>Genista tinctoria</i> ) o'simligini ayrim bioekologik xususiyatlari .....	674
<b>G.N.Shokirova</b> Agrotexnik usullar samaradorligini aniqlash .....	677
<b>I.P.Уринбоев, Ф.Р.Жумабоева</b> Опыление и плодоношение цветков вида липа ( <i>Tilia tomentosa</i> ), интродуцированного в ферганскую урбанофлору.....	682
<b>M.A.Давидов, И.Р.Уринбоев</b> Опыление и цветение видов липы во флоре города Ферганы.....	686
<b>M.A.Masodiqova</b> Eribidae oilasi vakillari va ularning zararkunandalik darajasi .....	689
<b>M.A.Masodiqova</b> Eribidae oilasi ( <i>Limantria dispar</i> ) turining toksonomiyasiga oid o'zgarishlar va zararkunandalik darajasi .....	692
<b>V.Mahmudov, B.Y.Hamraliyev</b> Shohimardonsoy havzasining noyob dorivor o'simliklari, ularni muhofaza qilish.....	695
<b>M.Q.Asadova</b> Poliploidiya va uning boshqoli o'simliklar seleksiyasidagi ahamiyati .....	698
<b>M.M.Mamajonova, V.Mahmudov</b> Farg'ona viloyati sharoitida dorivor <i>Cassia angustifolia</i> L o'simligining introduksiyasi va istiqbollari .....	701
<b>S.M.Xaydarov, F.N.Mingboyev</b> Akvakultura uchun ankistrodesmus mikrosvuvtini Chu-13 ozuqa muhitida biomassasini orttirish .....	703
<b>S.M.Xaydarov, B.E.Nishonov, F.N.Mingboyev</b> Baliqchilikda muxim ahamiyatga ega bo'lgan <i>Daphnia magna</i> biomassasini oshirishda mikrofitlardan foydalanish .....	706
<b>Z.A.Yusupova</b> Yozyovon cho'llari davlat tabiat yodgorligi florasini .....	709
<b>Z.A.Yusupova, F.B.Sayramov</b> Mavrak turlarining xalq tabobatida hamda tibbiyotda qo'llanilishi.....	712
<b>Z.A.Yusupova</b> O'zbekistonda uchraydigan Lamiaceae turlarining dorivor salohiyati va bioekologik xususiyatlari .....	717
<b>M.P.Yuldashova</b> Farg'ona vodiysi kanallari algoflorasining taksonomik tahlili (JFMK, SHFMK, KFMK lari misolida) .....	721
<b>M.K.Asadova</b> Нектарозапас медпродуктивных угодий южных областей Узбекистана и некоторые теоретические основы их использования .....	726
<b>V.Mahmudov, M.K.Jabbaraliyeva</b> Био-экологические свойства лекарственных растений ферганской долины применяющие при заболевании бесплодия .....	729



UO'K: 615.32:581.95(575.1):502.75

**SHOHIMARDONSOY HAVZASINING NOYOB DORIVOR O'SIMLIKLARI, ULARNI MUHOFAZA QILISH****УНИКАЛЬНЫЕ ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ БАСЕЙНА ШОХИМАРДОНСОЙ, ИХ ОХРАНА****UNIQUE MEDICINAL PLANTS OF THE SHOHIMARDONSOY BASIN, THEIR PROTECTION****Mahmudov Valijon<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti biologiya fanlari nomzodi, dotsent**B.Y.Hamraliyev<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Agrar qo'shma fakulteti, mevalilik va sabzavotchilik kafedrasida o'qituvchisi**Anotatsiya**

Maqolada Shohimardonsoy hududidagi kamyob va qimmatli dorivor o'simliklar haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan noyob endemik turlarni saqlab qolish, ayniqsa Oloy xiyoli va Margarita marmaragingining muhurligi ta'kidlangan.

**Аннотация**

В статье приведены сведения о редких и ценных лекарственных растениях Шахимардонсойского района. Подчеркивается важность сохранения уникальных эндемичных видов, занесенных в Красную книгу Республики Узбекистан, особенно мармараги Алая и Маргариты.

**Abstarct**

The article contains information about rare and valuable medicinal plants in the Shahimardonsoy region. The importance of preserving the unique endemic species included in the Red Book of the Republic of Uzbekistan, especially the Aloy's Ivy and the Margarita Marmaragi, is emphasized.

**Kalit so'zlar:** Oloy tog' tizmasi, kamyob endemik turlar, oloy xiyoli, areal, populyatsiya.**Ключевые слова:** Алайский хребет, редчайший эндемик, пузырница Алайская, шалфе Маргариты.**Key words:** Alai ridge, rare endemic, Alai bladderwort, Margarita sage**KIRISH**

Axoli va yirik ishlab chiqarish korxonalaridan chiqqan chiqindilar, zavod va fabrikalardan ajrab chiqayotgan xar turdagi zaharli kimyoviy brikmlar atmosfera, tuproq, yer osti va tabiiy suv manbalarini ifloslamogda, u yerdagi fauna va floraga tasir etib tabiiy ekosistemalarni buzilishiga, va mavjud turlar xayotchanligini pasayishi yoki ularning butkul yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari insonlarning tabiatga munosabati, ekologik madaniyatning yetishmasligi, tabiat quyniga sayoxatga chiqqanda ko'plab o'simlik ko'chatlari va ular o'sib turgan areallariga zarar yetkazishlari, ularning urug'i va mevalari pishib yetilmasdan yulib olinishi, chorva mollarning nazoratsiz va bir hududda ko'p vaqt mobaynida uzluksiz boqilishi ayni hududdagi o'simlik qoplamiga juda katta salbiy tasir ko'rsatadi. Bunday salbiy tasirlarni uzoq yillar mobaynida tasir etishi floramizdagi bir qancha qimmatli ahamiyatga ega bo'lgan dorivor va noyob o'simliklarni tabiatdagi sonining qisqarishi, bazi holarda esa butunlay yo'qolib ketishiga sabab bulmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Bugungi kunda xalqaro miqiyosida va yurtimizda ham soni kamayib ketayotgan, yo'qolish xavfi bor o'simliklarni aniqlash, ularni ro'yxatini tuzish, ayni shu o'simliklar tarqalgan areallarni aniqlash, xaritalash va ularga salbiy tasir ko'rsatayotgan omillarni aniqlash, o'simliklarni saqlab qolish choralarini tuzish va ularni himoya qilish maqsadida Qizil kitob tashkil qilingan. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi 1- marta 1984-yilda nashr qilinganda 163 ta kamyob va yo'qolish arafasidagi o'simliklar kiritilgan bo'lsa, so'ngi 2019-yilgi nashrida 48 oilaga mansub 313 tur o'simlik

kiritilgan. Bu esa shuni anglatadiki, 35 yil vaqt oralig'ida mamlakatimiz hududida yana qo'shimcha 150 ta o'simlik biologik jihatdan yo'qolish xavfi ostida qoldi.

Shuning uchun mamlakatimizda tabiatga bo'lgan munosabatni ijobiy tarafga o'zgartirish, o'simliklar olamini saqlab qolish va bioxilma-xillikni oshirish, ekologik holatni yaxshilash masalalari siyosat darajasiga ko'tarilgan. Vazirlar maxkamasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 2016-yil 24-avgustda, "O'simliklarni himoya qilish to'g'risida" 2023-yil 24-avgustda, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining**: "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi , va boshqa bir qancha qaror hamda qonun hujatlari tasdiqlandi.

Shu munosabat bilan botaniklar oldiga bunday noyob va yo'qolish arafisidagi o'simliklarni aniqlash va ularni biokologiyasini chuqur o'rganish vazifalari yuklatildi. O'rganishlar natijasida Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarning 11 ta oilaga mansub 21 ta turi farg'ona vodiysining Oloy tizmalarida , Shohimardon va So'x hududlarida tarqalgan qimmatli ahamiyatga ega bo'lgan dorivor o'simliklar ekanligi aniq bo'ldi. Jumladan: Kronning isfaragi(*Delphinium knorringianum*), Boris astragali(*Astragalus borissianus*), Zarxal astragal(*Astragalus dianthoides*), Ikki rangli astragal(*Astragalus rhacodes Bunge*), Yulingan astragal(*Astragalus rhacodes Bunge*), Mayda mevali dorema(*Dorema microcarpum Korovin*), Korjinskiy kavragi(*Ferula korshinskiy Korovin*), O'rinbosar kavrak(*Ferula vikaria*), Sariq qirg'ul(*Fergania polyantha (Korovin) Pimenov*), Oloy xiyoli(*Physochlaina alaisa Korotkova ex Kovolevsk*), Farg'ona lolasi(*Tulipa ferganica*), Sarg'ish lola(*Tulipa dasystemon Regel*), Bigizsimon oqtikan(*Akontophyllum albidum Schischik*), Bakxauz piyozi (*Allium bakhausianum Regel*), G'alati uchqat(*Lonicera paradoxa Pojark*), Nor shirach (*Eremorus robustus Regel*), Turkiston shotorasi(*Fumariola turkestanica Korsh*), Drabov sho'rasi(*Salsola drabovii Botsch*), Tyan-shan antoxlomisi(*Anthochlamys tianchanica Iljin*), Farg'ona donasho'ri(*Gamanthus ferganicus Iljin*), Margarita marmaragi(*Salvia margaritae Botsch*) kabi o'simliklar. Bular ichida juda noyob va qimmatli dorivorlik ahamiyatiga ega bo'lgan turlar: Margarita marmaragi, va relik tur hisoblangan Oloy xiyoli kabi qimmatli turlar mavjud.

#### NATIJA VA MUHOKAMA

Oloy xiyoli (*physochlaina alaisa Korotkova ex Kovalevsk*) ituzumdoshlar oilasiga mansub, bo'yi 50 santimetrga yetedigon ko'p yillik, kamyob endemik o't. Poyalari ko'p, tik, yoyiq siyrak, oddiy va bezchalituklar bilan qoplangan. Barglari uzun bandli, keng tuxumsimon, yaprog'ining uzunligi 5-10 sm, eni 4-8 sm ustki tomoni deyarli tuksiz, pastki tomoni tomirlari bo'ylab siyrak tuklar bilan qoplangan. Gullari qisqa -0,5 santimetr gacha, mevasining yetilishiga qarab uzaqib boradigan, bezchasimon tukli bandlarda joylashgan. To'pguli yoyiq, yuqori qismi kallakchasimon. Kosachasi bezchasimon tukli, uzunligi 0,5 sm. Gultoji qo'ng'iroqsimon, uzunligi 10-150 mm, xira Pushti rangli. Mevasi ko'sakcha, uzunligi 10-12 mm. may oyida gullab, mevasi iyun oyida pishadi.

Oloy xiyoli Farg'ona viloyatining: Oloy tizmasida, Shohimardon va So'x daryolarining havzalarida uchraydi. Bundan tashqari Qirg'iziston va Tojikiston (Turkiston tizmasi: Vorux, Xo'jabaqirgan qishloqlari atrofi) da ham tarqalgan. (1,4)

Bu o'simlik dengiz satxidan 1800-2000 m balandlikda, qoyalarning soyalarida, butazorlarning taglarida, archazor va ochiq yerlarda o'sadi. Keying paytlarda tabiiy iqlim sharoitining o'zgarib borishi, antropogen tasirlarning ko'payishi, chorva mollarining ko'p va tartibsiz boqish holatlarining ortishi natijasida oloy xiyolining tabiatdagi zahirasi juda xam kamayib ketgan. Adabiyotlar tahlili natijasi shuni ko'rsatyaptiki, Oloy xiyolini tabiatda uchratish mumkun bo'lgan, xar-xil yoshdagi 8000 ga yaqin tupi mavjud bo'lgan.(1) 2021-2024 yillar davomida olib borgan kuzatishlarimizga ko'ra, bu Keskin kamaygan, ayrim joylardagina o'rta va qari generativ tuplari uchratildi, nihol, yuvenil, immatur etapiga mansub typlar esa deyarli kuzatilmadi. Shuning uchun zudlik bilan turni saqlab qolish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish kerak

Margarita marmaragi – (*Salvia margaritae Botsch*) Oloy tizmasining kam sonli endemik turlardan biri. Bo'yi 50 sm ga yetadigan, yarim buta. Poyalari ko'p, asosidan shoxlangan. Barglari mayda, nashtarsimon, bandsiz. Kosacha barglarining uzunligi 18 mm, binafsha rangli, bezchasimon tukli. Gultojbarglari to'q binafsha rangli, bezchasimon tukli, uzunligi 30-40 mm. Margarita marmaragi iyunda gullab, mevasi iyul oyida pishib yetiladi. Manzarali va dorivor o'simlik.

Margarita marmaragi Farg'ona viloyati Oloy tizmasidagi Shohimardon daryosi vohasida tarqalgan. Bu o'simlik tog'larning o'rta qismida toshli va mayda jins-toshli ochiq yonbag'irlarda va qoyalarda o'sadi. Olimlarning izlanishlari bu o'simlikning tabiatdagi tarqalgan areallari juda

## BIOLOGIYA

qisqaligini ko'rsatmoqda. Xususan margarita marmaragining Shohimardon daryosi havzasida 10-15 ta populyatsiyasi borligi aniqlangan. Tuplarining soni esa nomalum.(1,3)

Kuzatishlardan shu narsa malum bo'ldiki Margarita marmaragi Oloy tog' tizmasining Qizil tog' yonbag'irlaridatoshlar orasida saqlanib qolgan. Kuzatish olib borilgan joylar har 100 m<sup>2</sup> da 1(2)generative etapiga mansub o'simlik kuzatildi, virginil etapiga mansub turlar deyarli kuzatilmadi.

Yuqoridagi malumotlardan ko'rinib turibiki ayni o'simliklar tarqalgan areallar juda kichik maydonlarda tarqalgan va ularning tabiatdagi soni, tarqalgan areallari yildan yilga qisqarib bormoqda. Agar maxsus chora tadbirlar ko'rilmasa yaqin vaqt oralig'ida bunday noyob va qimmatli bo'lgan o'simlik turlari bizning floramizdan butkul yo'qolib ketishi mumkun.

Bu o'simliklar nafaqat botanik jihatdan ahamiyatli, balki ular xalq tabobatida juda qimmatli dorivor o'simlik hisoblanadi. Jumladan :

Marmarak turlarining dorivorlik xususiyatlari haqidagi malumotlar adabiyotlarda yoritilgan(2,5). Ular tarkibida efir moyi, flavonoidlar, ursol va oleanol kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Bargining damlamasi burishtiruvchi, dezinfektsiyalovchi va yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi vosita sifatida yuqori nafas yo'llari yallig'lanishida, tomoq, og'iz va milk shilliq pardalari yallig'lanishida og'iz chayish uchun qo'llaniladi.

**XULOSA**

Marmarak va xiyol ahamiyatli dorivorlik xususiyatlariga ega bo'lgani uchun ular nafaqat O'zbekiston , balki Qirg'iziston Respublikasi qizil kitobiga ham kiritilgan. Shumi etiborga olib, yuqoridagi turlarni madaniylashtirish, va ularni saqlab qolish choralarini ko'rish kerak.

Tavsiyalar: Margarita marmaragi o'simligii urugidan yaxshi ko'paymaydi, tabiiy holatda urug'larning unuvchanligi juda past, unib chiqqan yosh nihollar har-xil ekologik omillar tasirida nobut bo'lmoqda. Aholi sonining ko'payishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi, bu o'simlik populyatsiyasini tobora qisqartirib yubormoqda. Ularni urug'lari maxsus sharoitlarda ekib parvarish qilinganda ular yaxshi o'sib, rivojlanishi mumkun. Lekin madaniylashtirishga oid malumotlar yo'q. shuning uchun bu o'simlikni Farg'ona tumani Vodil qishlog'i yuqori adirliklarida ekib o'stirish va madaniylashtirish ishlarini olib borish kerak.

Oloy xiyoli bu o'simlik xam xali madaniylashtirilmagan, tabiiy sharoitlarda ekib o'stirilgani ijobiy natija bermagan(1). Lekin O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi botanika bog'ida 1973- yildan beri ekib ,o'stirilib kelinmoqda. Bu o'simlik xam urug'i yordamida ko'payadi.

Xulosa qilib aytish mumkunki, tabiatimiz betakror, va undagi xilma xil o'simliklarni asrab qolish, ularni ko'paytirish nafaqat botaniklar oldidagi muhim vazifa , balki xar bir fuqaroning insoniylik burchidir. Yo'qolib borayotgan va kamyob o'simliklarni asrab qolish maqsadida ularn yangi iqlim sharoitlariga moslashtirgan holda madaniylashtirish choralarini ko'rish zarur.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi 1 jild "Chinor "ENK Ekologik noshirlik kompaniyasi ,Toshkent 2019. 356 b
2. Раманова А.С. и др Хиноны *Salvia buchorika*, *Salvia dracocephaloides*, *Salvia krolkowii* II ХПС. 1980, N4, С 564
3. Махмедов А.М. Шолфеи Средний Азии и Казахстана. Ташкент: Фан,1984, с 50-56
4. Ковалевская С.С. Сем Solonaseae. В кн: Флора Узбекистана, Т.5 Тошкент,1961. с. 416-445
5. Усмонходжоев А, Баситхонова Э.И, Пратов У.П, Джабборов А. Узбекистонда усадиган шифобахш усимликларнинг этимологик замонавий энсклопедияси. Тошкент, 2018, 544 б